

## 2019 yil yanvar-avgust oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5137,7 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **109,5 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **3541,7 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **112,7 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **68,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **73,3 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5137,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 111,1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 90,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 88,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4880,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,0 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
<b>O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna</b>	9,2	9,3	98,9
<b>Paxta linti, ming tonna</b>	1,5	1,7	88,2
<b>Aroq – ming litr 100 % spirt</b>	290,4	780,2	37,2
<b>Vino, ming litr</b>	876,0	882,0	99,3
<b>Un, ming tonna</b>	80,3	74,4	107,9
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna</b>	7,7	7,3	105,5



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 179,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ni) tashkil etdi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 46,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.



### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3541,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 112,7 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 68,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-avgust oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 30,0 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-avgust oyida 31,9 % ga yetgan.

**Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %da**



2018 yilning yanvar-avgust oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 70,0 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-avgust oyida 68,1 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	<b>Mrd.so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>	<b>2018 yil yanvar- avgustga nisbatan o'sish, % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>3541,7</b>	<b>100,0</b>	<b>112,7</b>
Namangan shahar	1698,0	47,9	113,4
Mingbuloq	31,0	0,9	107,0
Kosonsoy	148,3	4,2	113,3
Namangan t	373,4	10,5	111,6
Norin	71,5	2,0	112,6
Pop	84,2	2,4	103,9
To'raqo'rg'on	293,4	8,3	113,4
Uychi	231,0	6,5	111,2
Uchqo'rg'on	305,2	8,6	108,7
Chortoq	69,0	2,0	112,0
Chust	183,8	5,2	123,9
Yangiqo'rg'on	52,9	1,5	104,2


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1313,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 25,6% ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi,% da.**

2018 yil yanvar-avgust




2019 yil yanvar-avgust



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,% da.**






**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

	<b>2019 yil yanvar-avgust, mlrd.so'm</b>	<b>2018 yil yanvar-avgustga nisbatan, %</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>5137,7</b>	<b>109,5</b>
Namangan shahar	2308,7	109,9
Mingbuloq	106,7	105,2
Kosonsoy	197,8	110,6
Namangan t	569,9	118,0
Norin	94,9	105,2
Pop	206,1	104,0
To'raqo'rg'on	458,0	128,9
Uychi	323,8	106,4
Uchqo'rg'on	537,4	110,4
Chortoq	70,1	104,9
Chust	192,7	118,3
Yangiqo'rg'on	71,6	105,1

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 44,9 % ulushini), Namangan (11,1 %), Uchqo'rg'on (10,5 %), To'raqo'rg'on (8,9 %), Uychi tumani (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,4 %), Yangiqo'rg'on (1,4 %), Norin (1,8 %), Mingbuloq (2,1 %) va Chust (3,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da.**




Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 48,0 %), Namangan (10,5 %), Uchqo'rg'on (8,6 %) hamda To'raqo'rg'on (8,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida To'raqo'rg'on, Chust va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (3753,1 ming so'm), Namangan tumanida (3248,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (3182,3 ming so'm) va To'raqo'rg'on (2066,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1858,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1281,1 ming so'm bo'lgani hol da Namangan shahrida 2760,2 ming so'mni, Namangan tumanida 2127,9 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1807,1 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 1324,0 ming so'mni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat  
ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari**




### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 3766,9 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 73,3 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Uychi (88,6 %) va Namangan (87,7%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (28,7 %), Pop (39,5 %) va Chust (57,2 %) tumanlarida kuzatildi.


#### 2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**


Bugungi kunda viloyatda 5328 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2313 tasi Namangan shahrida, 387 tasi Uychi, 387 tasi Chust, 375 tasi Namangan, 344 tasi Kosonsoy, 325 tasi To'raqo'rg'on , 239 tasi Uchqo'rg'on, 221 tasi Norin, 213 tasi Yangiqo'rg'on, 206 tasi Chortoq , 203 tasi Pop va 115 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

**2019 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni  
(birlikda)**



2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 1146 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 54,5 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 sentyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni  
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

( 71 ) 230-84-80